

## **9-sinf**

# **MAVZU: INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQ VA ERKINLIK LARI**

### **Reja:**

1. Inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi
2. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi
3. Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi va tizimi
4. Yashash huquqining ta'minlanishi
5. Aybsizlik prezumpsiyasi
6. Ta'lim olish huquqi
7. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi

### **Inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi**

Inson huquqlari va erkinliklari — bu har bir inson tug'ilganidan boshlab ega bo'ladigan, uning sha'ni, qadr-qimmati va erkin yashashini ta'minlaydigan asosiy huquqlardir. Bu huquqlar insonning millati, irqi, jinsi, dini, tili yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha uchun tengdir.

Inson huquqlari insonning erkin yashashi, o'z fikrini erkin bildirish, ta'lim olish, mehnat qilish, shaxsiy hayotini himoya qilish kabi muhim imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Bu huquqlar davlat tomonidan tan olinadi va qonunlar orqali himoya qilinadi.

Inson huquqlari va erkinliklari jamiyatda adolat, tenglik va tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir davlat o'z qonunlari orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga majburdir.

### **Inson huquqlari va erkinliklari tizimi**

Inson huquqlari va erkinliklari bir nechta asosiy guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar inson hayotining turli sohalarini qamrab oladi. Ular quyidagilardan iborat:

#### **Shaxsiy huquqlar va erkinliklar**

#### **Siyosiy huquqlar**

#### **Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar**

#### **Madaniy huquqlar**

Bu tizim insonning har tomonlama rivojlanishi va erkin yashashini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi va tizimi.**

Shaxsiy huquq va erkinliklar — bu insonning shaxsiy hayoti, erkinligi va daxlsizligini ta'minlaydigan huquqlardir. Bu huquqlar insonning eng muhim tabiiy huquqlari hisoblanadi.

Shaxsiy huquq va erkinliklarga quyidagilar kiradi:

- yashash huquqi;
- shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi;
- sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi;
- shaxsiy hayot sirini saqlash huquqi;
- erkin harakatlanish huquqi;
- fikr, so'z va e'tiqod erkinligi.

Bu huquqlar insonning erkin yashashi va o'z shaxsini rivojlantirishi uchun juda muhim hisoblanadi.

### **Yashash huquqining ta'minlanishi.**

Yashash huquqi insonning eng asosiy va muhim huquqlaridan biridir. Bu huquq har bir insonning hayotini himoya qilishni anglatadi. Hech kim insonni o'z hayotidan mahrum qilishga haqli emas.

Davlat yashash huquqini ta'minlash uchun turli choralarni amalga oshiradi. Masalan:

- fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- favqulodda vaziyatlarda odamlarni himoya qilish.

Yashash huquqining ta'minlanishi jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlaydi.

### **Aybsizlik prezumpsiyasi.**

Aybsizlik prezumpsiyasi — bu huquqiy tamoyil bo'lib, unga ko'ra har bir inson sud tomonidan aybi isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.

Ya'ni inson faqat gumon qilinayotgani yoki ayblanayotgani uchun jinoyatchi deb hisoblanmaydi. Uning aybi qonuniy tartibda tekshirilib, sud qarori bilan tasdiqlanishi kerak.

Bu tamoyil inson huquqlarini himoya qilishda juda muhimdir. Chunki u har bir insonni asossiz ayblash yoki adolatsiz jazolashdan himoya qiladi.

### **Ta'lim olish huquqi.**

Ta'lim olish huquqi har bir insonning muhim ijtimoiy huquqlaridan biridir. Bu huquq insonning bilim olishiga, kasb egallashiga va kelajakda jamiyatda munosib o'rin egallashiga yordam beradi.

Davlat fuqarolarning ta'lim olish huquqini ta'minlash uchun maktablar, kollejlari, oliy ta'lim muassasalari tashkil etadi va ta'lim tizimini rivojlantiradi.

Ta'lim insonning dunyoqarashini kengaytiradi, uning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkonini beradi.

### **Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi.**

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi — bu davlat tomonidan inson huquqlarining himoya qilinishi va ta'minlanishini anglatadi.

Bu kafolatlar quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Konstitutsiya va qonunlar orqali;
- sud tizimi orqali;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali;
- davlat va jamoat tashkilotlari faoliyati orqali.

Agar insonning huquqlari buzilsa, u sudga yoki tegishli organlarga murojaat qilib o'z huquqlarini himoya qilishi mumkin.

Inson huquqlarining kafolatlanishi jamiyatda adolat, tenglik va qonun ustuvorligini ta'minlaydi.

---

## KEYS-SAVOLLAR

### 1-keys. Inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi

#### Vaziyat:

Nodavlat o'quv markazida yoshlar uchun ochiq seminar tashkil etildi. Seminar davomida ishtirokchilarga o'z fikrlarini erkin bildirish imkoniyati berilishi kerak edi.

Biroq muhokama jarayonida ayrim qatnashchilar tomonidan boshqa bir o'quvchi — Ziyoda o'zi qiziqqan savollarni bera olmadi, mehmonlarning vaqtini olmaslik uchun faqat ayrim ishtirokchilar savollar berishi mumkinligi aytili. Moderator esa vaziyatga aralashmadi. Natijada Ziyoda o'z fikrini to'liq bayon qila olmadi va muhokamada faol ishtirok etishdan voz kechdi.

Bu holat seminar muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va ayrim ishtirokchilar o'z fikrini bildirishdan qo'rqib qoldi.

#### Savollar:

1. Bu vaziyatda qaysi inson huquqlari buzildi?
2. Fikr bildirish erkinligi nimani anglatadi?
3. Nega bu huquq amalda ham ta'minlanishi kerak?
4. Moderatorning harakatsizligi qanday baholanadi?
5. Agar bunday holatlar takrorlansa, qanday ijtimoiy muhit shakllanadi?
6. Bu holatda to'g'ri huquqiy va axloqiy choralar qanday bo'lishi kerak edi?

### 2-keys. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi

#### Vaziyat:

Shaharda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlash maqsadida zamonaviy sport majmuasi foydalanishga topshirildi. Mazkur majmua barcha fuqarolar, ayniqsa maktab o'quvchilari va yoshlar uchun teng va adolatli foydalanish tamoyili asosida faoliyat yuritishi belgilangan edi.

Sport majmuasidan foydalanish uchun oldindan tasdiqlangan umumiy tartib va jadval mavjud bo'lishiga qaramay, amaliyotda ushbu qoidalar barcha foydalanuvchilarga bir xil tatbiq etilmadi. Xususan, ayrim shaxslar va guruhlar — majmua ma'muriyatiga yaqin bo'lgan tanishlar, norasmiy tavsiya asosida kelgan fuqarolar yoki ayrim sport to'garaklari a'zolari — sport zallari va mashg'ulot maydonlaridan foydalanishda ustuvorlikka ega bo'ldi.

Natijada oddiy fuqarolar, jumladan maktab o'quvchilari va sport bilan shug'ullanish istagidagi boshqa yoshlar uchun qulay vaqt oralig'ida sport inshootidan foydalanish imkoniyati cheklab qo'yildi. Ayrim hollarda ular navbat kutishga majbur bo'ldi, boshqa hollarda esa barcha vaqt band ekani vajidan foydalanish rad etildi.

Mazkur holat fuqarolar orasida norozilikka sabab bo'lib, sport majmuasidan foydalanishda tenglik va adolat tamoyillariga rioya qilinmayotgani haqida e'tirozlar bildirildi.

#### **Savollar:**

1. Bu vaziyatda inson huquqlari tizimining qaysi elementlari buzildi?
2. Tenglik va foydalanish huquqi qanday namoyon bo'lishi kerak edi?
3. Nega huquqlar tizimi o'zaro bog'liq hisoblanadi?
4. Bu holatda kimlarning huquqlari cheklangan?
5. Agar bunday tizimiy buzilish davom etsa, qanday ijtimoiy oqibatlar yuzaga keladi?
6. Adolatli tizim qanday tashkil etilishi kerak edi?

### **3-keys. Shaxsiy huquq va erkinliklar**

#### **Vaziyat:**

Maktab o'quvchilaridan iborat bir guruh tengdoshlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z sinfdoshi Azizga tegishli bo'lgan bir nechta suratlarni uning rozilgisiz tarqatdi. Mazkur suratlar turli messenger guruhlar va ijtimoiy tarmoq sahifalariga joylashtirilib, ular ostida Azizning tashqi ko'rinishi, xulq-atvori va shaxsiy hayotiga oid turli izohlar, kulgili kommentariyalar hamda muhokamalar yozildi.

Suratlar va izohlar qisqa vaqt ichida boshqa o'quvchilar orasida keng tarqalib, ko'plab shaxslar tomonidan ko'rildi va muhokama qilindi. Ayrim foydalanuvchilar ushbu materiallarni boshqa guruhlariga ham yubordi, natijada holat yanada ommalashdi.

Ushbu voqeadan so'ng Aziz o'zini tengdoshlari orasida noqulay his qila boshladi, ruhiy bosim va uyat hissini boshdan kechirdi. U dars jarayonlarida faol qatnashmay qo'ydi, sinfdoshlari bilan muloqotdan chetlasha boshladi hamda maktabga borishni istamasligini bildirdi.

Mazkur holat ota-onalar va pedagoglar e'tiborini tortib, o'quvchilar o'rtasida shaxsiy hayot daxlsizligi, hurmat va axloqiy munosabatlarga rioya etilishi masalasini kun tartibiga olib chiqdi.

#### **Savollar:**

1. Bu vaziyatda qaysi shaxsiy huquqlar buzildi?
2. Shaxsiy hayot daxlsizligi nimani anglatadi?
3. Nega boshqalarning rozilgisiz ma'lumot tarqatish huquqbuzarlik hisoblanadi?
4. Bu holat jabrlanuvchiga qanday ta'sir qiladi?
5. Agar bunday holatlar ko'paysa, jamiyatda qanday muammolar yuzaga keladi?
6. Bu vaziyatda qanday huquqiy choralar ko'rilishi kerak edi?

#### 4-keys. Yashash huquqining ta'minlanishi

##### Vaziyat:

Shahar hududidagi aholi gavjum ko'chalarda so'nggi vaqtlarda yo'l harakati qoidalariga rioya qilinmasligi bilan bog'liq holatlar ko'paygan. Xususan, ayrim haydovchilar belgilangan tezlik me'yorlariga amal qilmasdan transport vositasini yuqori tezlikda boshqaradi, svetoforning taqiqlovchi ishoralariga e'tibor bermaydi hamda piyodalar o'tish joylariga yaqinlashganda tezlikni pasaytirmaydi.

Shuningdek, ayrim transport vositalari haydovchilari piyodalarga yo'l berish majburiyatini bajarmasdan, zebra chiziqlari oldida to'xtamasdan harakatni davom ettiradi. Bu holatlar ayniqsa maktablar, bolalar bog'chalari va boshqa ta'lim muassasalari yaqinidagi hududlarda kuzatilmoqda.

Shunday holatlardan birida maktab o'quvchisi belgilangan piyodalar o'tish joyi orqali yo'lni kesib o'tayotgan vaqtda avtomobil haydovchisi svetofor va yo'l belgilariga rioya qilmasdan harakatlanib, o'quvchi uchun xavfli vaziyat yuzaga keltirdi. Piyoda zudlik bilan chetga chiqib ulgurmaganda, jiddiy yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishi mumkin edi.

Mazkur voqea atrofdagilar orasida xavotir uyg'otib, yo'l harakati xavfsizligi, piyodalar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish masalasiga jamoatchilik e'tiborini qaratdi.

##### Savollar:

1. Yashash huquqi nimani anglatadi?
2. Yo'l harakati qoidalariga amal qilmaslik bu huquqqa qanday tahdid soladi?
3. Nega har bir shaxs boshqalarning hayoti uchun ham javobgar hisoblanadi?
4. Bu holatda kimning huquqi buzildi?
5. Agar qoidabuzarlik davom etsa, qanday xavfli oqibatlar yuzaga keladi?
6. Yashash huquqini ta'minlash uchun qanday choralar zarur?

#### 5-keys. Aybsizlik prezumpsiyasi

##### Vaziyat:

Yirik savdo markazlaridan birida savdo rastalaridan mahsulot o'g'irlangani haqida ma'lumot kelib tushdi. Voqeadan so'ng savdo markazi xavfsizlik xodimlari hodisa sodir bo'lgan hududga yaqin joyda turgan o'quvchi Jamshidning xatti-harakatlaridan shubhalanib, uni voqea bilan bog'liq deb taxmin qildi.

Aniq dalillar va tekshiruv natijalari mavjud bo'lmasdan turib, xavfsizlik xodimlari Jamshidni boshqa xaridorlar va savdo markazi xodimlari oldida ochiq tarzda ayblay boshladi, undan keskin ohangda izoh talab qildi hamda uni huquqbuzarlik sodir etgan shaxs sifatida ko'rsatdi. Mazkur holat Jamshidning sha'ni va qadr-qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning atrofdagilar oldida noqulay ahvolga tushishiga sabab bo'ldi.

Keyinchalik savdo markazining kuzatuv kameralaridagi videoyozuvlar batafsil o'rganilganda, o'g'irlikni Jamshid emas, balki boshqa shaxs sodir etgani aniqlandi. Shundan so'ng Jamshidga nisbatan ilgari surilgan gumonlar asossiz ekani ma'lum bo'ldi.

##### Savollar:

1. Aybsizlik prezumpsiyasi nimani anglatadi?

2. Jamshidga nisbatan qanday huquq buzildi?
3. Nega shaxs sud qarorisiz aybdor deb e'lon qilinmasligi kerak?
4. Bu holat inson sha'ni va qadr-qimmatiga qanday ta'sir qiladi?
5. Agar bunday yondashuv odatiy holga aylansa, jamiyatda qanday muhit yuzaga keladi?
6. To'g'ri huquqiy yondashuv qanday bo'lishi kerak edi?

### 6-keys. Ta'lim olish huquqi

#### Vaziyat:

Umumta'lim maktabida bitiruvchi sinf o'quvchilarini yakuniy imtihonlar va kirish sinovlariga tayyorlash maqsadida qo'shimcha fan mashg'ulotlari tashkil etildi. Mazkur mashg'ulotlar maktabdagi ayrim fan o'qituvchilari tomonidan o'tkazilib, ularda qatnashish uchun o'quvchilardan alohida haq to'lash talab qilindi.

Qo'shimcha darslarda asosan imtihonlarda tushishi kutilayotgan murakkab mavzular, testlar va amaliy topshiriqlar ko'rib chiqildi. Moddiy imkoniyati yetarli bo'lgan o'quvchilar ushbu mashg'ulotlarga muntazam qatnashib, qo'shimcha bilim va tayyorgarlik olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Biroq ayrim o'quvchilarning oilaviy sharoiti sababli ular mazkur pullik mashg'ulotlarda ishtirok eta olmadi. Natijada ushbu o'quvchilar dars materiallarini to'liq o'zlashtirishda qiyinchilikka duch keldi, nazorat ishlari va imtihonlarda boshqalarga nisbatan pastroq natijalar ko'rsata boshladi.

Vaqt o'tishi bilan sinfdagi o'quvchilar o'rtasida bilim darajasi bo'yicha sezilarli tafovut yuzaga keldi hamda ayrim o'quvchilar teng sharoitda ta'lim olish imkoniyati buzilayotganidan norozi bo'la boshladi.

#### Savollar:

1. Ta'lim olish huquqi nimani anglatadi?
2. Bu vaziyatda teng imkoniyat prinsipi qanday buzildi?
3. Nega ta'limda adolat muhim?
4. Bu holatni yashirin imtiyoz berish deb baholash mumkinmi? Nima uchun?
5. Agar bunday holatlar davom etsa, jamiyatda qanday tengsizlik yuzaga keladi?
6. Ta'lim huquqini ta'minlash uchun qanday choralar zarur?

### 7-keys. Huquqlar va erkinliklarning kafolatlanishi

#### Vaziyat:

Ta'lim muassasasida o'quvchilar o'z huquqlari, manfaatlari yoki ularga nisbatan sodir etilgan adolatsiz munosabatlar yuzasidan maktab ma'muriyati va mas'ul shaxslarga murojaat qilish imkoniyatiga ega ekanligi belgilangan edi. Shu maqsadda murojaatlar qutisi, sinf rahbarlari orqali murojaat qilish tartibi hamda ota-onalar bilan uchrashuv mexanizmlari joriy etilgan.

Biroq amaliyotda ayrim o'quvchilarning dars jarayoni, baholash, tengdoshlari yoki pedagoglar bilan bog'liq murojaatlari belgilangan tartibda ko'rib chiqilmadi. Ba'zi murojaatlar javobsiz qoldirildi, ayrim holatlarda esa masalani o'rganish o'rniga ularni rasmiyatchilik bilan cheklangan tarzda qabul qilish bilan kifoyalaniildi.

Shuningdek, murojaat qilgan o'quvchilarga natijalar haqida yetarli tushuntirish berilmadi, muammo bo'yicha qanday choralar ko'rilgani yuzasidan axborot taqdim etilmadi. Natijada

murojaat qilgan o'quvchilar o'z muammolari tinglanmayotgani va himoya mexanizmlari amalda ishlamayotgani haqida fikr bildira boshladi.

Vaqt o'tishi bilan ayrim o'quvchilar o'z huquqlari buzilgan taqdirda ham murojaat qilishdan foyda yo'q degan xulosaga kelib, mavjud himoya va kafolat mexanizmlariga nisbatan ishonchini yo'qota boshladi.

**Savollar:**

1. Huquqlarni kafolatlash nimani anglatadi?
2. Nega faqat huquq berish yetarli emas?
3. Ushbu vaziyatda qanday tizimli muammo mavjud?
4. Agar murojaatlar ko'rib chiqilmasa, qanday oqibatlar yuzaga keladi?
5. Huquqni himoya qilish mexanizmlari qanday ishlashi kerak?
6. Ishonchni tiklash uchun nima qilish zarur?